O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI JARQO‘RG‘ON TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

Jarqo‘rg‘on tumani, O‘zbekiston ko‘chasi 13-uy. 190600, tel.: (+99876)432-10-94, jarqurgon.t@exat.uz, www.jarqorgon.uz

2023 - yil 5 - avgust 175-8-112-Q/23 Jarqo‘rg‘on tuman hokimligi

Jarqo‘rg‘on tumani hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llari, ichki xo‘jalik yo‘llari va markaziy ko‘chalarda fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida mahallalarga sun’iy yo‘l notekisliklarini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-aprel kungi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli Qarorlarida hamda “2022-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasiga muvofiq, shuningdek, Yangi O‘zbekiston sharoitida avtomobil yo‘llarida inson hayoti va sog‘ligini har qanday hodisalardan kafolatli himoya qilish maqsadida, mamlakatimizda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashning dolzarb yo‘nalishlari-avtomobil yo‘llari infaratuzilmasini takomillashtirish va ularning sifatini yaxshilash, yo‘l harakati ishtirokchilarining “piyoda-jamoat transport-velotransport-avtotransport” ustuvorligi asosida xavfsiz harakatlanishi uchun ishonchli shart-sharoitlar yaratish, yo‘l-transport hodisalarini oldini olish va harakat xavfsizligini ta’minlash borasida sun’iy notekisliklarni tashkil etish maqsadida,

QAROR QILAMAN

1. Jarqo‘rg‘on tumani Obodonlashtirish boshqarmasining 2023-yil 24 maydagi 381-A-sonli xati inobatga olinsin.

2. Tumandagi “Surxon sohili” mahallasi “Navbahor” ko‘chasi 1,5 km,

“Surxon sohili” mahallasi “A.Navoiy” ko‘chasi 1 km va “Navro‘z” mahallasi “Surxon boshi” ko‘chasi 1,2 km ichki xo‘jalik yo‘llari va markaziy ko‘chalarida O‘zbekiston Respublikasi davlat standarti O‘zDSt 3403-2019 talablari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-aprel kungi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli Qarori talablari asosida sun’iy yo‘l notekisliklari o‘rnatish tashkil etilsin.

3. Jarqo‘rg‘on tumani yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi boshlig‘i S.Mengliboyev, tuman Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i Ch.Samanov, mahalla fuqarolar yig‘ini raisi bilan birgalikda sun’iy yo‘l notekisliklarini yo‘l harakati xavfsizligi qoidalariga mos ravishda tashkil etish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni ko‘rsin.

4. Jarqo‘rg‘on tuman hokimining 2023-yil 3-iyuldagi “Jarqo‘rg‘on tumani hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llari, ichki xo‘jalik yo‘llari va markaziy ko‘chalarda fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida mahallalarga sun’iy yo‘l notekisliklarini o‘rnatish to‘g‘risida”gi 153-8-112-Q/23-sonli qarori yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga jamoatchilik muhokamasi o‘tkazilishi uchun joylashtirilmasdan qabul qilinmaganligi sababli bekor qilinsin.

5. Mazkur qaror “Jarqo‘rg‘on” gazetasida e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari Sh.Shokirov va ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi boshlig‘i S.Mengliboyev zimmasiga yuklatilsin.

Jarqo‘rg‘on tuman hokimi **E.R.Avazov**